

## SHAVKAT RAHMONNING MUHABBAT MAVZUSIDAGI AYRIM SHE'RLARINING ASSOTSIATIV TAHLILI

**Robiya Vaxobjonova**

NamDu Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi II kurs magistranti

E-mail: [mohizar\\_95@mail.ru](mailto:mohizar_95@mail.ru)

**Akbarjon Xasanov**

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'zbek tili kafedrasida dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada assotsiatsiya, assotsiativ maydon haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan hamda Shavkat Rahmonning muhabbat mavzusiga oid ayrim she'rlari assotsiativ jihatdan lingvistik va ekstralingvistik jihatdan tahlil qilingan.

*Kalit so'zlar:* assotsiatsiya, assotsiativ maydon, assotsiativ birlik, lingvistik omil, ekstralingvistik omil, lingvokulturologiya, lingvopoetika.

## АССОЦИАТИВНЫЙ АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ СТИХОТВОРЕНИЙ НА ТЕМУ ЛЮБОВЬ ШАВКАТА РАХМАНА

**Робия Вахобжонова**

НамДу Магистрант 2 курса лингвистики (узбекский язык)

**Акбаржон Хасанов**

Кокандский государственный педагогический институт, факультет языка и литературы

E-mail: [mohizar\\_95@mail.ru](mailto:mohizar_95@mail.ru)

*Аннотация:* В данной статье представлена краткая информация об ассоциации, ассоциативном поле, а также даны ассоциативно-лингвистические и экстралингвистические анализы некоторых стихотворений Шавката Рахмана на тему любовь.

*Ключевые слова:* ассоциация, ассоциативное поле, ассоциативная единица, языковой фактор, экстралингвистический фактор, лингвокультурология, лингвопоэтика.

## ASSOCIATIVE ANALYSIS OF SOME POEMS ON THE THEME LOVE BY SHAVKAT RAHMAN

**Robiya Vakhobjonova**

NamDu Master student 2 courses of linguistics (Uzbek language)

**Akbarjon Khasanov**

Kokand State Pedagogical Institute, Faculty of Language and Literature

E-mail: [mohizar\\_95@mail.ru](mailto:mohizar_95@mail.ru)

***Annotation:** This article provides brief information about the association, the associative field, as well as associative-linguistic and extralinguistic analyzes of some of Shavkat Rahman's poems on the theme of love.*

***Key words:** association, associative field, associative unit, language factor, extralinguistic factor, linguoculturology, linguopoetics.*

### KIRISH

Ma'lumki, har qaysi davrning o'ziga xos siyosati, iqtisodiyoti, madaniyati, ma'rifati mavjud bo'lib, shu ma'rifat-madaniyati yo'lida "xizmat qilgan" ilm egalari, aniqrog'i ijodkorlar bilan birga jonkuyarligi, otashin ijodi bilan iz qoldirgan ma'rifatparvar adib hamda shoirlar talaygina bo'lsa-da, Shavkat Rahmon o'ziga xos ijodi bilan ajralib turdi. Bu o'ziga xosligi bilan o'zini kuydirgan, qolaversa "bosharning eng buyuk tashvishlarini shiorday ko'tarib yursin niyatlar" deya boshqalarni-da yoqishga majbur qildi.

Atoqli o'zbek adabiyotshunosi O.Sharafiddinov shunday yozadi: "Rangsiz tasviriy san'at, ohangsiz musiqa bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi. Adabiyotni insonshunoslik deydilar. Darhaqiqat, yozuvchi xilma-xil insonlarning harakterini tadqiq qilib, jamiyat rivojiga yordam beradigan salmoqli haqiqatlarni kashf qiladi. Biroq bularning hammasi adabiyotda til orqali ro'yobga chiqariladi".<sup>1</sup> Ya'ni tilsiz adabiyot aks etmaydi. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik haqida so'z

---

<sup>1</sup> O.Sharafiddinov. Adabiyot tildan boshlanadi// O'zbekiston adabiyoti va san'ati,1986,5-sentabr.

ketar ekan, ular kesishgan nuqtada lingvopoetika yoʻnalishini tilga olmaslikning iloji yoʻq. Har qanday asarni lingvopoetik jihatdan tahlil qilish juda murakkab sanalib, insondan ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslikka doir bilimlarga ega boʻlishni talab etiladi. Biz tahlilga tortayotgan Shavkat Rahmonning sheʼrlarini lingvopoetik, aniqrogʻi, assotsiativ, struktural tahlil qilamiz.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Ushbu mavzuyimizga oid kitoblardan kerakli oʻrinlarda qoʻllanilishi mumkin. Jumladan; D.Lutfullayeva, D.Xudoyberganova, A.Nurmonov, I.Azimova. Jahon tilshunosligida esa, Platon, Aristotel ilgari surgan gʻoyalardan boshlangandan soʻngra V.Gumboldt ilk bor tildagi assotsiatsiya haqida munosabat bildirdi. F.de.Sossyur, N.V.Krushevskiy, A.A.Potebnya, M.M.Pokrovskiy, I.A.Boduen de Kurtene, G.Kent, A.Rozanov, J.Diz, J.Miller, Ch.Kofer va boshqalarning ishlarida assotsiativ tilshunoslik haqida koʻplab maʼlumotlar mavjud. Jahonning mashhur psixolingvistlari F.Galton, A.Tumb, K. Marb, A.Rozanov, D.S.Palermo, M.Rozentveyg, R.Vudvorts, L. Postmen, K. Nobl, J.Diz, J.Jenkins, F.Kreymer, A.R.Luriyalar bu yoʻnalishda juda koʻp izlanishlar olib borganlar.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Maqolada lingvopoetika yoʻnalishi bilan birgalikta assotsiativ tilshunoslik haqida ham fikr yuritiladi. Lingvopoetika va assotsiativ tilshunoslik sohalariga oid manbalardan foydalanilgan holda ish olib boriladi. Shu oʻrinda chet el hamda oʻzbek tillaridagi adabiyotlardan foydalanib, shoirning ayrim sheʼrlari tahlil qilinadi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Quyida shoirning “Yurak qirralari” toʻplamidan oʻrin olgan ayrim sheʼrlarining assotsiativ tahliliga toʻxtalamiz.

*Oy nurini kiygan goʻzalim farishtaday kirar xonamga,  
Birdan atrof yorishib ketar, titroq kirar yana jonimga.*

*Tinmay boqar iltijo bilan yana hayrat to'la ko'zlarim.  
Mayin qo'lin qo'limga qo'yar oy nurini kiygan go'zalim.*

*Yoyib tashlar shamol-sochini nafasidangullar taraydi,  
Mo'ldirlarin tiyib olmagan ko'zlarimga kulib qaraydi.*

*Rang qaytadi yana dunyoga, zulmatlarga yog'du sochilar,  
Soylar kular, kuladi osmon, qor ustida gullar ochilar.*

1. Leksemalarning uslubiy belgisiga asoslangan assotsiatsiyalar: *iltijo, yog'du, zulmat, oy nurini kiygan, zulmatlarda yog'du sochilmoq, soyalar kular, kuladi osmon, qor ustida gullar ochilar*. Ushbu leksik birliklar ham leksema shaklida, ham birikma, gap shaklida bo'lib, badiiy uslubga xosdir.
2. Leksemalarning semantikasiga asoslangan assotsiatsiyalar: *zulmatlarda yog'du sochilar, qor ustida gullar ochilar* gaplari tashqi tomondan aslida bir-biriga zid emas, ammo badiiy maqsad tufayli kontekst talabi bilan mantiqan, ya'ni ma'noviy qarama-qarshilik mavjud.
3. Leksemalarning yasalishiga asoslangan assotsiatsiyalar. Bunday munosabat leksemaning yasalish asosi bilan bog'liqlikni talab qiladi. Masalan, she'rdagi *farishtaday* so'zini eshitganimizda, *farishtali, farishtasiz, farishtaday oq, yuzi farishtali, farishtali uy, farishtasiz uy, iti bor uyga farishta kirmaydi* singari assotsiatsiyalar ongimizda yuzaga kelishi tajribalarimizda ma'lum bo'ldi. *Oy so'zini eshitganimizda esa oyday go'zal, oy yuzli, oyning dog'i bor, oqqoq, oyday kulib turuvchi* kabi assotsiatsiyalar yuzaga keladi.


Yuqorida aytganimizdek, ekstralingvistik omillar natijasida yuzaga kelgan assotsiatsiyalar ham badiiy asar mazmunida muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Zamondagi aloqadorlikka asoslangan assotsiatsiyalar. Qor ustida gullar ochilar gapidagi qor leksemasi zamoni bildiruvchi assotsiatsiyadir, ya'ni bilamizki,

- qor faqat qish faslida yog‘adi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, qor leksemasi qish fasliga ishora qilmoqda. Ushbu so‘z *sovuq, qalin kiyimlar, oqlik, muz, qor yog‘ishi, tashqari sovuq, ichkari issiq* kabi assotsiativ birliklarni chaqiradi.
2. Predmet va uning belgisi o‘rtasidagi assotsiatsiyalar. Farishtaday leksemasi she’rda tasvirlangan go‘zalni matndagi belgilaridir. Bu leksema *beg‘ubor, juda chiroyli, gunohsiz, oppoq, nurli* singari assotsiatsiyalarni ergashtirib she’rdagi mashuqaning tasvirlab bo‘lmas darajada belgiga egaligini bildiradi, chunki farishta ham bizni tasavvurimizda shunday belgilarga ega. Mayin leksemasi- *yumshuq, nozik, yoqimli, oppoq* assotsiatsiyalarini chaqirib, go‘zalning qo‘liga belgi sifatida qo‘llangan.
  3. Faoliyat va uning obyekti aloqadorligiga asoslangan assotsiatsiyalar. *Yoyib tashlar shamol sochini* misrasidagi *shamol* leksemasi *yoymoq, to‘zitmoq, chang qilmoq, iflos bo‘lmoq, sovuq* assotsiativ birliklarni chaqiradi.
  4. She’rdagi *ko‘zlarim, sochini, qo‘lin, qo‘limga, nafasidan* leksemalari bir butunning qismlari sifatida butun-qism munosabatiga asoslanadi.
  5. Egalik, mansublik belgisiga ko‘ra: *oy –planeta, soy-girdonimik birlik, qor-qish fasli, gul-bahor va yoz fasli* singari assotsiativ jihatdan o‘zining o‘zagiga ega.
  6. Sabab-natija munosabatidagi assotsiatsiyalar: *zulmat-tun, rang qaytadi-kun, gullar ochilar- bahor yoki yoz fasli*.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda she’rning assotsiativ maydoni tushunchasiga to‘xtalib o‘tishimiz darkor. Ma’lumki, tilshunoslikka assotsiativ maydon tushunchasini rus olimi Y.N.Karaulov kiritgan. U matndagi so‘z va so‘z biriklamalari ketma-ketligi orqali assotsiativ maydonni belgilash tartibi hamda ushbu assotsiativ maydon asosida matnyaratish metodikasini ishlab chiqdi. Uning fikricha, matnning assotsiativ strukturasi asosida matn, uning muallifi hamda ushbu matnni kitobxon tomonidan idrok etilishi jihatlari haqida yangi bilimlarga ega bo‘lish mumkin.<sup>1</sup> Yuqoridagi she’rning assotsiativ maydonini quyidagi chizmada ko‘rsatib o‘tamiz.

<sup>1</sup> Ю. Н. Караулов. Ассоциативный анализ новкй подход к интерпретации художественного текста. -М;1996-с.183



Izoh: binafsha rangdagi leksemalar yadro soʻzga nisbatan yaqin, pushti rangdagi leksik birliklar esa bilvosita bogʻlangan birliklar, yashil rangli leksema esa nisbatan yadrodan uzoq leksemdir.

Yuqoridagi sheʼrda sarlavha yoʻqligi uchun sheʼrdagi *goʻzal* leksemasi yadro leksema sifatida olindi, chunki sheʼrning suyjeti *goʻzalning* xonaga kirib kelishi bilan boshlanadi. Assotsiativ maydon tarkibida koʻrganimizdek, soʻz birikma shaklidagi leksemalar hamda gap shaklida qoʻllangan assotsiatsiyalar mavjud. *Yorishib ketgan*, *oy nurini kiygan*, *farishtaday*, *mayin qoʻl* va boshqa birliklar maʼshuqa va u bilan bogʻliq voqea-hodisalarni anglatib kelgan. *Farishtaday* leksemasi hamda *oy nurini kiygan* birikmasi individual hamda jamoaviy lingvokulturologik assotsiatsiyalarni aks ettiradi. Masalan; *farishta- oppoq*, *nurli*, *koʻrinmas*, *osmonda*,

*uchuvchi, qanoti bor, gapiruvchi*- jamoaviy (ma'lum diniy bilimga ega bo'lgan insonlar ongida farqli bo'ladi) assotsiatsiyalardir. Yosh bolalar va diniy bilimga ega bo'lmagan insonlarda esa, *uchuvchi, oppoq, qanoti bor, chiroyli* kabi assotsiatsiyalar yuzaga kelganini tajribalardan ko'rishimiz mumkin.

- Lingvokulturologik jihatdan farishta so'zini eshitganimizda, *farishtali odam, uyi farishtali, yuzidan farishtaday nur yog'iladi, farishtasiz odam* singari assotsiatsiyalar keladi. Ya'ni islom diniga e'tiqod qiluvchilar ongida yuqoridagi assotsiatsiyalar kelsa, boshqa din, millatga mansub bo'lgan insonlar ongida o'zgacha aks etishi mumkin.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, shoirning nafaqat muhabbat mavzusidagi, balki boshqa ko'plab mavzulardagi she'rlarini tahlil qilishimiz mumkin. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, har qanday asar tahlilida yozuvchi, shoir kitobxonga yetkazmoqchi bo'lgan ma'no bilan, kitobxon anglagan ma'no o'rtasidagi bog'liqliklar assotsiativ jihatdan tahlil qilingandagina yuzaga chiqadi. Ushbu she'rda shoir yorni shu darajada tasvirlaganki, hatto oydan ham go'zal, hatto farishta kabi bir inson. Biz qachonki, she'rni assotsiativ jihatdan tahlil qilsakina shoirning yor haqidagi tasavvuri, fikrlarini bilishimiz mumkin. Shundan kelib chiqqan holda assotsiativ jihatdan tahlil qildik.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. D.Xudoyberganova. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi- Toshkent,2017.
2. D.Lutfullayeva. Leksikani mazmuniy maydon asosida o'rganish muammolari- Toshkent,1996.
3. Sh.Rahmon. Abadiyat oralab,- Toshkent-2012; B-59.
4. M.Yo'ldoshev. Badiiy matn lingvopoetikasi.-Toshkent,2008.
5. T.Qudratov, T.Nafasov. lingvistik tahlil-Toshkent,1981.
6. O.Sharafiddinov. Adabiyot tildan boshlanadi// O'zbekiston adabiyoti va san'ati,1986,5-sentabr
7. Ю. Н. Караулов. Ассоциативный анализ новкй подход к интерпретации художественного текста.-М;1996-с.183
8. U.Hamdani. Shavkat Rahmon she'riyatiga bir nazar maqolasi.